

YANGI TEXNOLOGIYALARNI TAYYORLASH VA RIVOJLANTIRISH SOHASIDAGI INNOVATSIYALAR

Mustafoyeva Durdona Asilovna

*«Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalash muhandislari instituti»
Milliy tadqiqot universiteti «Professional ta'lim» kafedrasi dotsenti, PhD*

Annotasiya. Fan va texnologiyalarning so'ngi yutuqlari ishlab chiqarish bilan birga, ta'lim sohasiga ham sezilarli o'zgarishlar, yangiliklar va o'qitishning zamonaviy vositalarini olib kirish imkonini berdi. Bu yutuqlarning ta'lim sohasiga kirib kelishi uning an'anaviy vazifalariga nisbatan ham sezilarli o'zgartirishlar kiritish zaruratini qo'ydi. Shu asnoda ta'limda Klaster texnologiyalarini qo'llash va uning tub moxiyatini tushunish va anglab etish uchun zaruriy pedagogik shart sharoit va ijodiy muhitni yaratish muammosi yuzaga keldi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, modernizatsiyalash, innovatsiya, iqtisodiy raqobatbardoshlik, klaster, ta'lim klasterlari

ПРИМЕНЕНИЕ КЛАСТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССАХ

Мустафоева Дурдона Асильевна

*Национальный исследовательский университет «Ташкентский институт
инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства»
Доцент кафедры «Профессиональное образование», (PhD)*

Аннотация. Последние достижения науки и техники привнесли существенные изменения, инновации и современные средства обучения в сферу образования наряду с производством. Проникновение этих достижений в сферу образования потребовало внесения существенных изменений в его традиционные задачи. В связи с этим возникла проблема создания необходимых педагогических условий и творческой среды для понимания и осознания сути образовательных кластеров.

Ключевые слова: компетенция, модернизация, инновации, экономическая конкурентоспособность, кластер, образовательный кластер

APPLICATION OF CLUSTER TECHNOLOGIES IN INNOVATIVE EDUCATIONAL PROCESSES

Mustafoyeva Durdona Asilovna

*National Research University «Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural
Mechanization Engineers» Associate Professor of the Department of Professional
Education (PhD)*

Annotation. The latest advances in science and technology have brought significant changes, innovations and modern teaching tools to the field of education along with production. The penetration of these achievements into the field of education made it necessary to make significant changes in its traditional tasks. In this context, the problem of creating the necessary pedagogical conditions and creative environment for understanding and realizing the essence of educational reforms has arisen.

Keywords: competence, modernization, innovation, investment, economic competitiveness, cluster, educational cluster

Kirish. Bugungi kunda pedagogika fani taraqqiyotining zamonaviy yo'nalishlari mavjud an'anaviy ta'lim paradigmasining ob'ektiv asoslari va ularning rivojini ta'minlovchi qonuniyatlarini modernizatsiyalashdan iborat etib belgilandi. Pedagog kadrlarning kreativ kompetentligini rivojlantirish orqali ijodiy ta'lim jarayonini loyihalashtirishning zamonaviy metodik ta'minotini yaratish, talabalarda kasbiy faoliyat

sohalariga yo'naltirilgan kreativlik qobiliyatlarini rivoshlantirish oliy ta'limning ta'lim sifatini oshirish jarayonidagi ijtimoiy rolini ta'minlash masalalari muhim o'rin tutadi. Bu masalani e'tiborga olgan holda etakchi xorijiy tajribalar asosida zamonaviy kasbiy ta'lim mazmunini internatsionalizatsiyalash va modernizatsiyalash, innovatsion ta'lim muhitini shakllantirish, interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalarini amaliyotga keng tadbiiq etish asosida talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi. Ushbu o'rinda ta'lim oluvchilarning yangi bilimlarni o'zlashtirish, ijodkorlik hamda fikrlash mezonlariga tayanuvchi paradigmani yaratish zaruriyati namoyon bo'lib, u ta'lim mazmuni metodlari, tashkilish shakllari, kadrlar ta'minoti kabi jihatlarni keng ko'lamda aks ettiruchi ta'lim muammolarini alohida dolzarb masala sifatida oldingi o'ringa olib chiqishini ko'rsatmoqda. Bu esa ta'lim jarayonida «o'qituvchi va ta'dim oluvchi» munosabatlarini insonparvarlashtirish va shaxsga yo'naltirish orqali o'quv jarayonini mustaqil tashkil etib, boshqaruvchi, har bir ta'lim oluvchi shaxsining ijodiy va intellektual rivojini ta'minlovchi zamonaviy o'qituvchi shaxsiga bo'lgan talablarni vujudga keltirdi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining pedagogik ta'siri asosiy va etakchi omillardan biri hisoblanishi zamonaviy ta'limda yangicha kasbiy qiyofadagi pedagogga bo'lgan ijtimoiy talab ortib bormoqda [1, 21].

O'qituvchining samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqishdan farqli o'laroq, ta'lim texnologiyasi talabalar faoliyatiga nisbatan yo'naltirilgan bo'lib, u talabalarning shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Bu o'z navbatida ta'limda innovatsion ta'lim texnologiyalarini tashkillashtirish zaruratini ko'rsatadi. Lug'aviy jihatdan «innovatsiya» tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda («innovation») «yangilik kiritish» degan ma'noni anglatadi. «Innovatsiya» tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi. Innovatsion ta'lim (ingl. «innovation») – yangilik kiritish, ixtiro) – ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalarni, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim [2, 79].

Adabiyotlar sharhi. Zamonaviy ta'limga xos muhim jihatlardan biri – pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlagan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M. Maylz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem, F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbiiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabaror bilish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmunini yoritilgan. Mohiyatiga ko'ra innovatsiyalar munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. O'z-o'zidan tizim sifatida yangilik kiritirish munosabat yoki jarayonning, birinchidan, ichki mantig'ini, ikkinchidan, kiritilayotgan yangilikning muayyan vaqt oralig'ida izchil rivojlanishi va atrof-muhitga ko'rsatadigan o'zaro ta'sirini ifodalaydi. Bugungi kunda pedagoglarning innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalariga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarini o'zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondashuvga ega bo'lishlari talab etiladi. O'z mohiyatiga ko'ra pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarining o'zlashtirilishi ularda innovatsion yondashuvni qaror topishi asosida kechadi.

Innovatsion ta'lim jarayonlarini tashkillashtirishning kasbiy-ijtimoiy zarurati kreativ faoliyatga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi, kasbiy tayyorgarligining takomillashuvi, interfaol ta'limning samarali jihatlari hamda o'qitish modellari va tasniflanishi tahlil

qilishga imkon yaratadi.

Fan arbobi, professor g.I.Muxamedovning ta'kidlashicha, pedagogik ta'lim innovasion klasteri - uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha ta'lim turlari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, amaliyot bazalari, ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalarning bir butunligi bo'lib, ularning birgalikdagi vazifalar taqsimlangan faoliyati pedagogik ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish imkonini beradi. Binobarin, klasterning asosiy maqsadi o'z tarkibiga kiruvchi ta'limiy-ilmiy innovasion salohiyatni nafaqat yuqori fuqarolik va kasbiy layoqatlilik darajasi bilan balki raqobatbardoshligi, yangiliklarni qabul qila olish qobiliyati, yangi ta'lim dastur va texnologiyalarini loyihalash hamda amalga oshira olish qobiliyatiga ega zamonaviy ta'lim mutaxassislarini tayyorlash uchun birlashtirishdir [4, 2].

Tadqiqot metodologiyasi. Pedagogik ta'lim innovasion klasterining muallifi, klasterning maqsadini quyidagilarda deb biladi:

- ta'lim, fan va pedagogik amaliyotning turli shakl va turlari hamda vositalarini izlab topish va ta'lim amaliyotiga tatbiq etish;

- ta'lim va tarbiya uzviyligi, aloqadorligi, uzluksizligini ta'minlovchi mexanizmlarini izlab topish va takomillashtirish;

- barcha ta'lim fanlari bo'yicha pedagogik ta'limni rivojlantirishning dolzarb muammolarining intellektual resurslarini integrasiyalash;

- pedagogik ta'limga o'quvchilarning qiziqishini oshirish, ularda pedagog bo'lishga istak va xohishni uyg'otish, institutga yuqori ko'rsatkichlar bilan tahsil olayotgan o'quvchilarni tanlab olish mexanizmlarini ishlab chiqish;

- talabalarni bugungi jadal rivojlanish jarayonlarida bevosita ishtirokini ta'minlash hamda yosh mutaxassislarning kasbiy ko'nikmalarni egallash davrini qisqartirish

Ta'lim sohasida chet el investisiyalarini jalb qilish, shu jumladan franchayzing shartnomalari asosida zamonaviy marketing mexanizmlari bilan jahonda mashhur bo'lgan universitetlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun qulay sharoit yaratish kabi chora-tadbirlari 2018-2019 yillarda O'zbekistonda ta'limni rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi «ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi PF-6097 sonli farmoniga kiritilgan [5].

Pedagogika sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish maqsadida etakchi xorijiy OTMlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, kadrlar almashinuvini yo'lga qo'yish, ilmiy stajirovkalarni amalga oshirish, shuningdek, pedagogik ta'limni tartibga soluvchi mavjud me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish hamda pedagogik ta'lim innovasion klasteri plptformasini ishlab chiqish hozirgi zamon pedagogikasining dolzarb muammolaridan biri xisoblanadi.

Pedagogik ta'lim innovasion klasteri vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

- ta'lim va tarbiya sifat va samaradorligini oshirishda innovasion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish;

- maqsadli trening va master-klasslar, ilmiy-amaliy konferentsiyalar tashkil qilish;

- institut kafedralari professor-o'qituvchilari ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida tayanch OTMlari, ilmiy marakazlar, ITI lari bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish.

Ta'limda innovasion va investision faolligini oshirish maqsadida mamlaktimizda xalqaro ta'lim forumlar hamda innovasion loyihalarning taqdimotlari keng ko'lamda tashkil etib kelmoqda. Jumladan, mamlaktimizda yangi xorij universitetlarining filiallari, qo'shma fakultetlar va kafedralar, ilmiy laboratoriyalar o'z faoliyatini boshlamqda [6, 20].

Xulosa va takliflar. Demak, pedagogik ta'lim innovasion klasteri oliy ta'lim muassasalari va umumiy o'rta ta'lim maktablarining ta'lim-tarbiya jarayonlariga kirib borib, tizimlararo aloqadorlikni, fanlararo uzviylik va uzluksizligi hamda ta'lim va tarbiyaning integrasiyasiga keng yo'l ochib berishi yaxshi natijalarga undaydi. Shunday qilib, barqaror innovasion rivojlanish iqtisodiyotni taraqqiy etishning samarali yo'li sifatida, bir tomondan agar ta'limni innovasion rivojlanish darajasini aks ettirsa, boshqa

tomondan, u sohani barqaror rivojlanish jarayonida ijtimoiy faollik, ekologik xavfsizlik va iqtisodiy raqobatbardoshlikka erishilganligini ifodalaydi [7, 67].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Innovasion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – T.: «Sano standart» nashriyoti, 2015. – 121 b.
2. Pedagogikanazariyasi va tarixi. Pedagogikanazariyasi. 1-qism./M.To'xtaxo'jaeva va boshq. – T.: Iqtisod-moliya, 2009 y. - 279 b.
3. Sharipov Sh.S. Kasb-hunar ta'limida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini uzluksiz rivojlantirish. Monografiya. -Toshkent, fan, 2005 y. -140 b.
4. Sh.Mardonov «Xalq so'zi» gazetasining onlayn sahifasida chop etilgan «pedagogik ta'lim innovasion klasteri: ehtiyoj, zarurat, natija» // 2019 yil 15 fevral
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2020 yil 30 iyundagi 30-sonli buyrug'i, 1-ilovasi.
6. Волчок Т.И. Профессионально-образовательный кластер как форма социального партнерства в подготовке кадров // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017. – Т. 25. – С. 18–20. – URL: <http://ekoncept.ru/2017/770484.ht>
7. Данилов С. В., Лукьянова М.И. Кластерный подход в региональном образовании // Современные проблемы науки и образования. - 2015. - № 1. - С.67